

Uzbekistan Airways Express qanday xizmat turlarini ko'rsatadi?

2021 23 Sentabr

Bugungi kunda Uzbekistan Airways Express – bu Moskva, Rostov-na-Donu, Krasnodar, Mineralniye Vodi, Novosibirsk, Qozon, Sochi, Ekaterinburg, Oqtov va Oqto'ba shaharlarga sayohat qilishning maqbul usuli. Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlarida ko'rsatiladigan xizmatlar soni qisqartirilganligi sabab aviachiptalar narxi 20% gacha arzonlashgan.

Yuk tashish me'yorlari*:

- Kattalar uchun – 15 kg dan oshmasligi kerak (158 sm);
- 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun – 5 kg dan oshmasligi kerak (115 sm),
- Qo'l yuki – 5 kg (115 sm).

Bortda taomlanish:

- 2 soatgacha bo'lgan parvozlarda – individual paketdagi suv;
- 2 soatdan ortiq parvozda – tovuq kotletli sendvich, salat bargi, sabzavotlar yoki qaynatilgan dudlangan tovuqli sendvich, salat bargi, sabzavotlar.

Joy tanlash xizmati:

- Parvozdan 48 soat kam bo'lmagan muddatda taqdim etiladi.

Media tizim:

- Quloqchinlar taqdim etiladi.

Aviachiptani qaytarish:

Qayta bron qilish / qayta rasmiylashtirish / aviachiptani qaytarish holatlarida tarif qoidalariga muvofiq belgilangan yig'im undiriladi.

Boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilmaydi.

Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlari jadvali bilan

<https://www.uzairways.com/ru/uzbekistan-express> sahifasi yoki aloqa-markaziga qo'ng'iroq qilish orqali tanishishingiz mumkin +998 78 140 02 00 (kecha-kunduz).

Uzbekistan Airways Express aviachiptalarini www.uzairways.com rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib oling.

*Yuk tashish me'yori aviachipta tarifiga ko'ra amalga oshiriladi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways